
Rasmiy munosabat

"Yutub" ijtimoiy tarmog'ida gazlashtirish uchun "Ochiq byudjet"dan 1 mlrd. 80 mln. yutgan qishloqqa gaz kelmasligi aytili deb nomlangan videomaterial e'lon qilindi. Ushbu materialda keltirilgan holatlar bo'yicha "Rishtontumangaz" bo'limi quyidagilarni ma'lum qiladi. Rishton tumani Bujay va Yangi Bujay MFYda yashovchi fuqarolar "Tashabbusli byudjet" jarayonida ushbu mahallalarni gazlashtirish uchun 1 mlrd. 80 mln. mablag'ni yutib olishgan. Ushbu holat o'rganish davomida Bujay va Yangi Bujay MFYda yashovchi aholi xonadonlari 2013-2014 yillargacha tabiiy gaz bilan ta'minlanib kelingan. Mavjud resurslarning yetishmovchiligi va tabiiy gaz ta'minotidagi qoniqarsizliklar sababli Farg'ona viloyati hokimining 2014-yil 7 iyuldagi 163-sonli qarorini ta'minlash maqsadida, Rishton tumani hokimligi tomonidan 2014 yil 10 iyuldagi 754-sonli qarori va gaz ta'minoti qoniqarsiz hududlarni suyultirilgan gaz ta'minotiga moslashtirish reja-jadvali tasdiqlangan. Hozirgi kunda Yangi Bujay va Bujay MFYlari hududidagi 1290 ta aholi xonadonlar suyultirilgan gazga moslashtirilib tuman hokimligi va "Rishtontumangaz" bo'limi tomonidan tasdiqlangan reja-jadvalga asosan doimiy ravishda suyultirilgan gaz bilan ta'minlanib kelinmoqda. Rishton tumani Bujay va Yangi Bujay MFYda yashovchi fuqarolar "Tashabbusli byudjet" jarayonida ushbu mahallalarni gazlashtirish uchun 1 mlrd. 80 mln. mablag'ni yutib olishgan. Bujay va Yangi Bujay MFY fuqarolari "Tashabbusli byudjet" loyihasida faol ishtirok etib, g'olib bo'lishiga qaramay, ushbu hududlar tabiiy gaz ta'minotidagi qoniqarsizliklar sababli loyihani amalga oshirish "Hududgaz Farg'ona" ta'minoti tomonidan rad etib kelinmoqda. Bu borada bir necha marta tuman hokimligi, sektor rahbari, moliya bo'limi, viloyat deputati va "Rishtontumangaz" bo'limi xodimlari tomonidan fuqarolarga tushuntirishlar olib borildi. Ushbu hududga tabiiy gaz yetkazib berilishi imkonsiz ekanligi tufayli ularga "Tashabbusli byudjet" loyihasida yutib olingan mablag'ni mahalladagi boshqa obodonlashtirish ishlariga (asfaltilash, elektr ta'minotini yaxshilash) safirlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytilib o'tildi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-18 18:21:18